

AMIR TEMUR DAVLATINING ICHKI VA TASHQI SIYOSATI

Tolibjonov Mag‘rurbek Muhiddin o‘g‘li
Sobirov Abdurahmon Jamoliddin o‘g‘li

Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy- gumanitar va san'at fakulteti
Tarix yo‘nalishi 1- bosqich 102- guruh
Talabasi

Annotasiya . Ushbu maqola Amir Temur tashqi siyosati va ichki siyosatini o'ziga xos xususiyatlari va bugungi kundagi ahamiyati haqida yozilgan bo'lib, unda Amir Temur siyosati chet davlatlar bilan olib borilgan aloqalar va ular o'rtasidagi savdo haqida yozib borilgan. SHuningdek, Amir Temur davlatining ichki va tashqi siyosati. Temur o'zining hayoti davomida harbiy iste'dodi, mohir sarkardaligi, diplomatliligi va yetuk davlat arbobi bo'lganligi tufayli milliy yuksalish va insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan ulkan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo'ldi. Sohibqiron turkMo'g'ul an'analariga amal qilgan holda o'z davlati hududlarini suyurg'ol (ulus) tariqasida in'om qilish yo'li bilan boshqargan.

Abstract . This article is written about the specific features of Amir Temur's foreign and domestic policies and their significance today, and it discusses the policies of Amir Temur in terms of relations with foreign countries.

Annotatsion. В статье рассматриваются особенности внешней и внутренней политики Амира Темура и их значение в наши дни, а также рассматривается политика Амира Темура в плане отношений с зарубежными странами

Kalit so‘zlar: Diplomatiya, Eron, Ozarbayjon, savdo, elchilik, 8 marta elchilik, Boyazid Yildirim.

Keywords: Diplomacy, Iran, Azerbaijan, trade, embassy, 8 times embassy, Bayazid Yildirim.

Ключевые слова: Дипломатия, Иран, Азербайджан, торговля, посольство, 8-кратное посольство, Баязид Йылдырым.

Kirish

Amir Temur dunyodagi o‘z davrining eng qudratli saltanatini barpo etib uning xududlarini Sharq Farbga, Shimolu – Janubga kengaytirdi, iqtisodiy maʼnaviy-madaniy yuksalishga erishdi, aholi turmush darajasini misli ko‘rilmagan darajaga ko‘tardi va o‘z saltanati dovrug‘ini olamga yoydi. Amir Temur vazir to‘rtta sifatga ega bo‘lishi lozim deb hisoblagan: birinchisi-asllik, toza nasllilik, ikkinchisi-aqlfarosatlik, uchinchisi-sipohu raiyat ahlidan xabardorlik, to‘rtinchisi-sabr-chidamlilik va tinchlik sevarlik. Amir Temur hukmronlik qilgan davlarda davlatning markaziy ma‘muriyati boshida devonbegi, arkbegi va to‘rt vazir turgan. Vazirlar soliqlar yiqish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni oziq-ovqat bilan ta‘minlash, saroy xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni bajarganlar.

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va kelajagi yo'lida xizmat - eng oliy saodatdir. - T: O'zbekiston, 2015. 300-301-betlar.

Bundan tashqari, o'tgan zamonlarda mavjud bo'lgan davlatlar, qirollik va amirliklarning muvaffaqiyatli diplomatik munosabatlari, elchilarning tayinlanish yuborilish va kutib olish tartiblari, ularning diplomatik faoliyati va ulkan tajribasini o'rganish ham ahamiyatlidir. Bugungi kunda Rui Gonzales de Klavixo kundaliklarining asl nusxasi Madriddagi Milliy kutubxonada saqlanadi. Birinchi marta kundalik Sevilyada noshir Argote de Molina tomonidan «Buyuk Temurlang hayoti, uning imperiyasi yerlari bilan» nomi bilan 1582-yilda nashr qilingan. Klavixo kundaliklari ilk marta I.I. Sreznevskiy tomonidan 1881-yilda Peterburgda rus tiliga tarjima qilinib, chop etilgan. O‘zbek tiliga taniqli adabiyotshunos olim, professor Ochil Tog‘ayev tomonidan tarjima qilingan. Albatta, Temur davri manbalari orasida eng beqiyos — bu Amir Temurga yevropalik qirollar tomonidan yuborilgan maktublar va ularga jo‘natilgan javob xatlaridir. Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VIga, Angliya qiroli Genrix IVga yuborgan maktublari uning tashqi siyo-sati va diplomatik san‘ati to‘g‘risida fikr yuritishda katta yordam beradi. Amir Temurning Karl VIga yuborgan maktubi 1996-yilda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Fransiyaga rasmiy tashrifi chog‘ida Fransiya Prezidenti Jak Shirak tomonidan tuhfa qilingan bo‘lib, bugungi kunda maktub Toshkentdagi Temuriylar tarixi davlat muzeyida saqlanadi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning quyidagi so‘zlarini keltirishni lozim topdik. "Buyuk shaxslarni tarix yaratadi. Amir Temur

bosqinchi to‘dalarning Yevropa ichkarisiga qilayotgan harakatiga chek qo‘yganini, boshqa tajovuzkorlik yurishlarini uzoq muddatga to‘xtatib qo‘yishini hozir inkor qilib bo‘lmaydi.

Unga "Yevropaning xaloskori" degan ramziy unvon berilgani bejiz emas" Masalan, juda katta saltanatga hukmronlik qilgan va o'z zamonining buyuk siyosat arbobi, mohir diplomat va sarkarda - Amir Temurning xalqaro munosabatlarda boshqa mamlakat vakillari bilan olib borgan diplomatik faoliyati hozirgi zamonda mavjud diplomatik tamoyillar, uslublar va odatlar bilan juda yaqin o'xshashlikka ega.

2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T: O'zbekiston, 2011. 13-bet.

Ushbu maqolada Amir Temur diplomatiyasining o'ziga xos xususiyatlari va uning bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilinadi. O'rta asrlarda savdo bilan diplomatiya uyg'unlashib ketgan edi. Amir Temur "Buyuk ipak yo'li"ni nazorat qilib, xorijiy mamlakatlardan kelayotgan savdo karvonlari qatnovining xavfsizligini ta'minlashda rabotlar, qal'alar, ko'priklar qurish yo'lida muhim chora-tadbirlar ko'rdi va Sharq bilan G'arb o'rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g'oyat katta e'tibor berdi. U poytaxtga ketayotgan savdogar va elchilarning beto'xtov yurishi uchun sharoit yaratilishini talab qilardi. Amir Temur eng muhimi, Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi mayda hukmdorlar o'rtasidagi tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo'shdi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o'rnatdi. Tarixshunos S.R.Moralez "The Diplomat in Spain" gazetasining internet saytida chiqargan maqolasida quyidagilarni bayon qilgan: "O'zbek diplomatiyasi haqiqatdan chuqur tarixiy ildizga ega. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur davriga kelib, Yevropa davlatlari bilan hamkorlik aloqalari yanada rivojlana bordi. O'zbek xalqi bu yil Amir Temur tavalludining 679-yilligini nishonlamoqda. Temur kabi sohibqironning tug'ilishi nafaqat o'sha zaminda, balki butun Yevropa va Osiyo davlatlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida tub burilish sodir etdi" Amir Temur umrining ko'p qismini jangu jadallarda o'tkazdi. Yangi hududlarni egallagan va o'lkalarni dushman tasarrufidan ozod qilganda, shu yerlarni obod qildi, shu bilan bir qatorda, dastavval kuch ishlatmasdan sulh tuzish yo'li bilan chora ko'rdi.

Bu uning diplomatiyasidagi o'ziga xos xususiyat hisoblanadi. Nizolarni kuch ishlatmasdan hal qilish hozirgi zamon diplomatik munosabatlarining asosiy tamoyili hamdir. Islom Karimov ham "elchilaming yutug'i urushni boshlamasidan turib uni yutishda" deb aytgan so'zlari Amir Temurning diplomatik hislatini namoyon qiladi.

4.. A. Sog'unuy, H. Karomatov. Temur Tuzuklari. Forschadan tarjima. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.

Shu bilan bir qatorda, Amir Temur o'zining "Tuzuklari"da "qaysi ishni chora-yu tadbir bilan bitirishning iloji bo'lsa, unda qilich ishlatmadim" degan so'zlari fikrimiz dalilidir. Bundan tashqari, qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsa, ularning odamlariga katta ehtirom ko'rsatdi va ular uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi. U o'z "Tuzuklari"da shunday deb yozadi: "Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborlik kishilarini aziz tutdim, sayidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyihlariga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg'ol vazifalar in'om etib, maoshlarini belgiladim, o'sha viloyatning ulug'larini bo'lsa, o'z farzandlarimdek ko'rdim. Mazkur mamlakatlarning sipohlari uchun dargohim eshigi ochiq edi. Hammani qo'rquv va umid orasida saqladim" Islom Karimov ham Amir Temurning bunday diplomatik xislatlari va mahoratini yuqori baholab, o'zining "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" asarida u haqidagi bir rivoyatni misol keltirib, uning diplomatik qobiliyatini e'tirof etdi: "Amir Temur yarim jahonni zabt etib, olis o'rmon qabilalariga borib yetibdi, xullas, ularni ham o'ziga bo'ysundiribdi. Qaysar va jangari, ozod va samimiy bu qabila boshlig'i chorasizlik tufayli Temurga qurollarini topshirar ekan, quyidagi gaplarni aytibdi: «Ey, Temur! Sen bizni qurol kuchi bilan yenga olding. Biroq senga aytadigan shartlarimiz bor. Agar sen qassob bo'lsang, bizni so'yib tashla, agar sen savdogar bo'lsang, sotib yubor, agar podsho bo'lib kelgan bo'lsang - bizga baxt ato et!" Diplomatik yo'l bilan o'z ta'sir doirasini kengaytirish usulini Amir Temur o'z faoliyatining ikkinchi bosqichi, ya'ni jahongirlik davrida ham keng qo'llagan.

5.Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. - Toshkent: O'zME, 2010. 199-bet.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temurning diplomatiyasining asosiy xususiyati shundan iboratki, diplomatiyaning Sharq madaniyati bilan uyg'unlashganidir. Undagi har bir harakat millatning an'ana, manfaat va

qadriyatlariga binoan amalga oshirilgan. Hozirgi Sharq mamlakatlarida amalga oshirilayotgan diplomatik munosabatlarning Amir Temur diplomatiyasi bilan o'xshashligini payqash qiyin emas. Elchiga ko'rsatilayotgan hurmatdan tortib, to xorijiy mamlakatlarning oddiy vakillariga ko'rsatiladigan ehtirom Sharq diplomatiyasi, ayniqsa, Amir Temur diplomatiyasining asosini tashkil etadi. Bu kabi xususiyatlar O'zbekistonning hozirda olib borayotgan, tinchlik va o'zaro hamkorlikni ilgari suruvchi, xavfsizlik va totuvlik kabi qadriyatlar bilan sug'orilgan hamda boshqa davlatlarning qarorlarini hurmat qilish, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish kabi g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan diplomatik aloqalarining asosiy mezonlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va kelajagi yo'lida xizmat - eng oliy saodatdir. - T: O'zbekiston, 2015. 300-301-betlar.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T: O'zbekiston, 2011. 13-bet.
- 3 . Moralez S.R. Ruy González de Clavijo, un madrileño en el reino del Gran Tameñán. "The Diplomats in Spain" gazetasining internet sayti, 2015. Veb: del-gran-tamerlan/
- 4.. A. Sog'unliy, H. Karomatov. Temur Tuzuklari. Forschadan tarjima. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
- 5.Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. - Toshkent: O'zME, 2010. 199-bet.